

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

Karimjonov A. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich ta‘lim tizimini takomillashtirish davr talabi	308
Matupayeva Sh. Z. Inklyuziv ta‘limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati	312
Ochilov F. I. Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish imkoniyatlari	319
Jabborova O., Sapparbayeva D. Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi diagnostikasi	327
Sultanov T. M. Ilk boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining muhim jihatlari va izohi	335
Maxmudova D. M., Mirxalilova N. A. Funktsional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari	340
Ochilov F. I., Ashurova F. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlar hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari	347
Hikmatov I. M., Ochilov F. I. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari	355
Rustamova N. X. “Boshlang‘ich ta‘limda yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” fanining ahamiyati	364
Usmonova Q. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tankidiy fiklashni shakllantirishda pedagogik – psixologik integratsiya va uzluksizlik	370
Karshiyeva D. E. Boshlang‘ich ta‘lim sotsiologiyasi mazmuni	376
Abdurashidov A. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasining dolzarb muammolari	382
Назирова Г. М. Ривожлантирувчи марказ: Халқ қўшиқлари ва ўйинлари болаларда миллий ғурур ҳиссини тарбиялаш воситаси сифатида	392
Эсонова М. А. Практическая деятельность детей в дошкольном образовательном учреждении	402
Арсланова Г. Дж., Панкина М. С. Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников	409
Арсланова Г. Дж., Сытина Н. В. Инклюзивное обучение в начальном образовании	414

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Alimardonov A. N. “Bolalar sportini rivojlantirishda milliy o‘yinlarining ahamiyati”	419
Alimov Q. A., Daminov I. A. Sog‘lom turmush tarzinining tarixiy rivojlanishi va uning mohiyati	425
Toshbayev X. Y. Maktabdan tashqari jismoniy tarbiya va sport ishlarini amalga oshirishning takomillashtirish yo‘llari	430
Jo‘rayeva S. B. Kurashchi qizlarning trenirovka jarayonida texnik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari	434
Mengliboyeva O. A. Халқ педагогикасида болаларнинг ўйини ва унинг тарбиявий аҳамияти	438
Toshboev B. SH. Sport tibbiyotida qo‘llaniladigan tibbiy nazorat usullari	443
Alimov Q. A., Xo‘jayev O‘. X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chaqqonlik sifatlarini tarbiyalashda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	446
Xo‘jayev A. Q. Kuchli tayyorgarlik vositalaridan foydalangan holda yosh erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	451
Payg‘amova S. Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish	455
G‘afforova D. B. Gandbolchilarning hujum va himoyadagi texnik usullarini rivojlantirish metodikasi	459
Худайберганов О. К. Педагогические аспекты проблемы ценностного отношения к физической подготовке у курсантов и слушателей высших учебных заведений структуры МВД Республики Узбекистан	463
Ашуров Б. Ш. Стритбол в Республике Узбекистан	469



“YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI” ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH DAVR TALABI

Karimjonov A.

ChDPU, “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedra dotsenti

Tayanch so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot, strategiya, takomillashtirish, boshlang‘ich, tizim, mexanizm, sifatli, asosiy yunalishlari, ijtimoiy siyosat, ma‘naviy taraqqiyot, umumbashariy, maqsadlar, rivojlantirish, xususiy sektor, natijalar, demokratik islohotlar, vazifalar.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, развитие, стратегия, совершенствование, начальная, система, механизм, качество, основные направления, социальная политика, духовное развитие, всеобщее, сели, развитие, частный сектор, результаты, демократические реформы, задачи.

Key words: New Uzbekistan, development, strategy, improvement, initial, system, mechanism, quality, main directions, social policy, spiritual development, universal, goals, development, private sector, results, democratic reforms, tasks.

Mazkur O‘zbekiston Respublikasining ilk va boshlang‘ich yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017 – 2021-yillarda boshlang‘ich ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Boshlang‘ich ta‘lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda Boshlang‘ich ta‘lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash va o‘qituvchilarni o‘z ustida ishlash muammolari haqida”-gi qarorga asosan boshlang‘ich ta‘lim pedagoglarini kasbiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish, muassasada ta‘lim-tarbiya berish sifat darajasini ko‘tarish va yuqori sinflar ta‘limiga tayyorlash hozirgi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ni xalq maorifi oldiga quyilgan eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichidan yangi boshlang‘ich ta‘lim tizimini amalga oshirish va bu tizim uchun yuqori malakali pedagoglar tayyorlash jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan “Yangi O‘zbekistonning



taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich ta’lim pedagoglarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirish masalasini tadqiq etish dolzarb bo’lib turisti. Bu o’rinda ana shu masalaning Taraqqiyot strategiyasida vazifa sifatida quyilishi muammosi tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

1. Taraqqiyot strategiyasida sifatli ta’limni amalga oshirish vazifalari. 2022 – 2026-yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” ning asosiy yo’nalishlarini quyidagilar tashkil etish mumkin:

1) inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

2) mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

3) milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash;

4) adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

5) ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

6) milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumiy bashariy muammolarga yondashish;

7) mamlakatimiz xavfsizligini va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

E’tibor berilsa, ushbu yetti yo’nalishdan iborat bo’lgan Taraqqiyot strategiyasida sifatli ta’limga erishish to’rtinchi ulanishda vazifalar kutilgan. Ayni paytda, har bir yo’nalishda maqsadlar belgilangan. Bu yunalishlarda sifatli ta’limga erishishning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va pedagogik vazifalari hamda asoslari belgilangisini ta’kidlash joiz. Shu jihatdan sifatli ta’limga erishish uchun ikki vazifa quyidagicha belgilangan va uni amalga oshirish boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirish asoslarini idrok etish imkonini beradi:

a) adolatli ijtimoiy siyosat yuritish – bunda inson qadrlanadigan ta’lim va tibbiyot xizmatini amalga oshirish;

b) inson kapitalini rivojlantirish – bunda shaxsning aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish va inson aql vositasidan yuzaga keladigan ixtirolar, kashfiyotlar hamda texnologiyalardan foydalanish.

Bularning barchasi Taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimida, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimida sifatli ta’limga erishish asoslarini belgilaydi.

2. Taraqqiyot strategiyasi asosida boshlang‘ich ta’lim muassasasi pedagoglarini dunyoviy bilimlarga erishish va tayyorlash masalasi. Taraqqiyot strategiyamizda barcha sohalar qatorida boshlang‘ich ta’lim muassasalarini rivojlantirish va ularni yuqori malakali pedagoglar bilan ta’minlash vazifalari



ham quyilgan. Bu o‘rinda Taraqqiyot strategiyasida boshlang‘ich ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan maqsadlarni anglab olish kerak buladi.

E‘tibor berilsa, Taraqqiyot strategiyamizda boshlang‘ich ta‘limda yuqori sifatli ta‘limga erishish bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilangan. Bularning barchasi boshlang‘ich ta‘limda yaqin besh yilda muhim o‘zgarishlar bo‘lishini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu borada amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligiga erishish taqozo etiladi.

3. *Taraqqiyot strategiyasi asosida boshlang‘ich ta‘lim muassasalarini rivojlantirishdan kutiladigan natijalar.* Taraqqiyot strategiyasi asosida boshlang‘ich ta‘lim muassasalarini rivojlantirishdan kutiladigan natijalarini idrok etish bu boradagi vazifalarni jamiyat miqyosida kutilgan darajada ijrosini ta‘minlash uchun asos bo‘ladi. Mazkur masalada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz” dasturi nutqidan quyidagilar qayd etilgan:


“1) Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak;

a) Bu borada avvalo, boshlang‘ich tizimini urta maxsus maktab ta‘limi bilan uyg‘unlashtirish orqali bolalarimizni maktabga tayyorlash sifatini yanada yaxshilaymiz;

b) Mamlakatimizning hamda hududlarida talabga javob beradigan yangi – yangi zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim muassasalari barpo etiladi;

v) Mazkur boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi 160 ming nafardan ziyod pedagoglarning malakasi oshiriladi”.

Diqqat qilinsa, bu o‘rinda boshlang‘ich ta‘lim tizimini Taraqqiyot strategiyasi asosida rivojlantirishdan kutiladigan natijalar to‘g‘risida aniq tasavvur beringlar. Shu jihatdan Taraqqiyot strategiyasining **“Inson kadrini ulug‘lash**





va faol mahalla yili “Davlat dasturida 2022-yilda boshlang‘ich ta‘lim tizimida bu vazifalarini amalga oshirish belgilangan:

Shunday qilib “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida yuqori sifatli ta‘limga erishish masalasida 2022 – 2026-yillarga ta‘lim tizimi bo‘yicha, jumladan, boshlang‘ich tizimiga doir vazifalar, sifatli ta‘limga erishish mexanizmlari va ulardan kutiladigan natijalarni idrok etish muhim ahamiyatga ega.

E’tibor bering:

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mujmallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022-yil 1-fevral soni.
2. Qarang: O‘zbek pedagogik ensiklopediyasi. 2-jild.-T.,2016
3. Karimjonov A.,Ochilov F. Boshlang‘ich ta‘limda ta‘lim-tarbiya muammolari. Tashkent 2020.
4. Karimjonov A. Pedagogik tizimini boshqarish asoslari. O‘quv qullanma. Tashkent Nafis. 2008.
5. Karimjonov A., Karimjonova D.A. “O‘quv muassasalarida me‘yoriy hujjatlarni yuritish” Toshkent “FIRDAVS” 2020
6. Karimjonov A., Karimjonova D.A. “Bozy va inkishofi nutq” dar ta‘limi savod. Toshkent. “Ishonch-hamkor” 2021.

РЕЗЮМЕ

Maqolada hozirgi davr talablari asosida boshlang‘ich ta‘lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar ya‘ni yuqoriy salohiyatli pedagog kadrlar tayyorlash va ularni bilim, ko‘nikma va malakasini oshirish chora tadbirlari o‘z aksini topgan. Xususan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida yuqori sifatli ta‘limga erishish masalasiga katta e’tibor qaratgan.

РЕЗЮМЕ

В статье, исходя из требований современной эпохи, отражена подготовка высококвалифицированных специалистов, то есть высокопотенциальных педагогических кадров, и мероприятия по повышению их знаний, умений и квалификации в начальных образовательных учреждениях. В частности, он уделял большое внимание вопросу достижения качественного образования на основе «Стратегии развития Нового Узбекистана».

SUMMARY

The article, based on the requirements of the modern era, reflects the training of highly qualified specialists, that is, high-potential teaching staff, and measures to improve their knowledge, skills and qualifications in primary educational institutions. In particular, he paid great attention to the issue of achieving quality education based on the “Development Strategy of New Uzbekistan”.